
Har bir murojaat hokim nazoratida

📌 Bugun Xalq qabulxonasida tumani hokimining navbatdagi fuqarolar qabuli bo'lib o'tdi. Qabul jarayonida sektor rahbarlari ham qatnashib, fuqarolarning muammolarini tingladilar.

📌 Qabulda fuqarolarning har bir murojaati alohida nazoratga olinib, ularni hal etish choralari ko'rildi. Ochiq va samimiy muloqot tarzida kechgan qabulda uy-joyga ega bo'lish, moddiy yordam, uy-joy ta'miri bo'yicha, ishga joylashish va boshqa masalalarga oid murojaatlar kelib tushdi.

📌 Qabulda 22 nafar fuqarolar ishtirok etib, ulardan 9 nafarining masalasi ijobiy hal etildi. 8 ta masala yuzasidan huquqiy maslahat berilib, 5 ta masala ijroga qaratildi.

📌 Qabul davomida muddat talab qiladigan murojaatlar yechimini topish yuzasidan mutasaddilarga qat'iy topshiriqlar berildi. Ta'kidlanganidek, har bir murojaat asoslicha o'rganib chiqiladi va qonuniy yo'l bilan yechimini topadi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-25 15:50:31